https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Maxamadaliyev Boburbek Baxodir o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti, mustaqil tadqiqotchisi
mbobur313@gmail.com
+99894 277 88 98

HUDUDIY IQTISODIY TIZIMLARNI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada hududiy iqtisodiy tizimlarni raqamlashtirish jarayonining nazariy-metodologik asoslari va amaliy jihatlari tahlil qilingan. O'zbekiston hududlarida raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samarasi, hududlararo raqamli tafovut muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari o'rganilgan. Tadqiqotda 2020-2024 yillar davri statistik ma'lumotlari asosida viloyatlarning raqamli rivojlanish dinamikasi baholangan.

Kalit so'zlar: hududiy iqtisodiyot, raqamlashtirish, raqamli infratuzilma, elektron hukumat, hududiy tafovut, raqamli transformatsiya, mahalliy boshqaruv, aqlli hududlar, raqamli iqtisodiyot.

Аннотация. В статье анализируются теоретико-методологические основы и практические аспекты процесса цифровизации региональных экономических систем. Изучены экономическая эффективность внедрения цифровых технологий в регионах Узбекистана, проблемы межрегионального цифрового неравенства и пути их устранения. В исследовании на основе статистических данных за период 2020-2024 годов оценена динамика цифрового развития регионов.

Ключевые слова: региональная экономика, цифровизация, цифровая инфраструктура, электронное правительство, региональное неравенство, цифровая трансформация, местное управление, умные регионы, цифровая экономика.

Abstract. The article analyzes the theoretical and methodological foundations and practical aspects of the digitalization process of regional economic systems.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

The economic efficiency of digital technology implementation in the regions of Uzbekistan, problems of inter-regional digital divide and ways to eliminate them are studied. The study evaluates the dynamics of digital development of regions based on statistical data for the period 2020-2024.

Keywords: regional economy, digitalization, digital infrastructure, e-government, regional inequality, digital transformation, local governance, smart regions, digital economy.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning asosiy xususiyatlaridan biri raqamli texnologiyalarning barcha hayotiy sohalarga chuqur kirib borishidir. Raqamlashtirish jarayoni milliy iqtisodiyot darajasida amalga oshirilishi bilan birga, hududiy darajada ham tizimli va izchil amalga oshirilishi zarur. Hududiy iqtisodiy tizimlar - bu ma'lum geografik hududda joylashgan, o'ziga xos iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy xususiyatlarga ega bo'lgan, bir-biri bilan uzviy bog'langan iqtisodiy subyektlar majmuasidir.

O'zbekiston Respublikasida hududlar o'rtasida iqtisodiy rivojlanish darajasi, infratuzilma ta'minlanishi va raqamli texnologiyalarga kirish imkoniyatlari jihatidan sezilarli farqlar mavjud. 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, internet kirish darajasi poytaxt Toshkent shahrida 95 foizni tashkil etsa, ayrim viloyatlarda bu ko'rsatkich 75-80 foiz atrofida. Hududiy iqtisodiy tizimlarni raqamlashtirish bu tafovutlarni qisqartirish, barcha hududlarda iqtisodiy o'sishni ta'minlash va fuqarolarning turmush darajasini yaxshilash uchun muhim vositadir.

"Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida mamlakatning barcha hududlarida raqamli transformatsiyani amalga oshirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. 2020-yilda 29 ta namunaviy tumanlarda raqamli transformatsiya loyihasi boshlangan va bosqichma-bosqich barcha hududlarga kengaytirilmoqda. Ammo amaliyotda hududiy raqamlashtirish jarayonida bir qator muammolar: raqamli infratuzilmaning notekis rivojlanishi, kadrlar taqchilligi, mahalliy budjet

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

imkoniyatlarining cheklanishi, hududiy boshqaruv organlarining raqamli kompetensiyalarining yetarli emasligi kuzatilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Hududiy iqtisodiyotni raqamlashtirish masalalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli kontekstlarda o'rganilgan. Xorijiy tadqiqotlar doirasida Manuel Kastels "tarmoq jamiyati" kontseptsiyasini ishlab chiqib, raqamli texnologiyalarning hududiy tizimlarni transformatsiya qilish mexanizmlarini tahlil qilgan. Uning fikricha, axborot texnologiyalari yangi turdagi "axborot oqimlari maydoni"ni yaratadi va bu hududiy ierarxiyani qayta shakllantiradi. Entoni Taunzend "aqlli shaharlar" kontseptsiyasini rivojlantirgan va raqamli texnologiyalar asosida shahar boshqaruvini optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish va fuqarolar hayot sifatini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatgan. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, aqlli hududlar yaratish nafaqat texnologik, balki institutsional va ijtimoiy innovatsiyalarni ham talab qiladi. Hanna Jahon banki tadqiqotida rivojlanayotgan mamlakatlarda hududiy raqamli tafovutning sabablari va oqibatlarini tahlil qilgan. U infratuzilma, ta'lim, moliya imkoniyatlari va institutsional qobiliyatlarning hududiy raqamlashtirish jarayonidagi hal qiluvchi rolini ta'kidlagan.

O'zbekiston kontekstida mahalliy olimlar, xususan, Sharifxodjayev, Jumayev, Begimqulov kabi tadqiqotchilar raqamli iqtisodiyotning milliy jihatlarini o'rganganlar. Ularning ishlarida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, raqamli savodxonlikni oshirish masalalari muhokama qilingan. Ammo mavjud tadqiqotlarda hududiy iqtisodiy tizimlarni raqamlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, hududlar o'rtasida raqamli imkoniyatlarning taqsimlanishi, mahalliy boshqaruv organlarining raqamli transformatsiyadagi roli va hududiy raqamlashtirish strategiyasini shakllantirish mexanizmlari etarli darajada o'rganilmagan. Shuningdek, hududiy darajada raqamlashtirish samarasini baholash metodologiyasi ishlab chiqilmagan. Ushbu tadqiqot ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Metodologiya. Tizimli yondashuv hududiy iqtisodiy tizimni kompleks, ko'p darajali va o'zaro bog'liq elementlar majmuasi sifatida o'rganishga imkon berdi. Bu yondashuv hududiy raqamlashtirishni iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va institutsional jarayonlar yig'indisi sifatida tahlil qilishni ta'minladi. Qiyosiy-geografik tahlil O'zbekistonning turli viloyatlari va hududlarini raqamli rivojlanish darajasi bo'yicha taqqoslash, hududiy tafovutlarni aniqlash va ularning sabablari hamda oqibatlarini baholash uchun ishlatilgan. Viloyatlar guruhlarga bo'linib, har bir guruhning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Statistik tahlil usuli O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi) ma'lumotlari asosida raqamli rivojlanish dinamikasini baholash uchun qo'llanilgan. 2020-2024 yillar davri uchun quyidagi ko'rsatkichlar tahlil qilindi: internet penetratsiya darajasi, mobil aloqa qamrovi, raqamli davlat xizmatlaridan foydalanish intensivligi, raqamli iqtisodiyotning YAIM dagi ulushi hududlar kesimida.

Muhokama va natija. O'zbekistonda so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot sezilarli rivojlanishga erishdi. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 2020-yildagi 13 852,3 milliard so'mdan 2024-yil yanvar-dekabr oylarigacha 56 174,2 milliard so'mga yetdi, bu 4,05 barobar yoki 305,3 foiz o'sishni tashkil etadi. Yillar kesimida quyidagi dinamika kuzatilmoqda:

1-Jadval

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi dinamikasi (milliard so'm)

Yil	Hajm (mlrd so'm)	O'sish sur'ati (%)	O'sish (o'tgan yilga nisbatan)
2020	13 852,3	-	-
2021	17 755,1	+28,8%	+23,8%
2022	24 508,1	+38,0%	+26,4%
2023	39 064,4	+59,4%	+28,8%
2024	56 174,2	+43,8%	+25,4%

2024-yilning yanvar-dekabr oylaridagi umumiy hajmi eng katta kompyuter dasturlashtirishga oid xizmatlar egallaydi. 2024-yilning yanvar-dekabr oylaridagi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ulushi 40,7 foizni tashkil etdi, bu raqamli iqtisodiyotda dasturiy ta'minot va IT xizmatlarining ustunligini ko'rsatadi.

Har yili barqaror o'sish sur'ati saqlanmoqda. 2021-yilda o'sish 23,8 foiz, 2022-yilda 26,4 foiz, 2023-yilda 28,8 foiz va 2024-yilda 25,4 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning barqaror va tez rivojlanishidan dalolat beradi.

Hududlar bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining taqsimlanishi notekis bo'lib, katta shaharlar va iqtisodiy jihatdan rivojlangan viloyatlar ustunlik qilmoqda. 2024-yil yanvar-dekabr oylari ma'lumotlariga ko'ra quyidagi taqsimot kuzatilmoqda:

2-Jadval

Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
(2024-yil, milliard so'm)

Hudud	Hajm (mlrd so'm)	O'sish (%)	Ulushi (%)
Toshkent shahri	40 559,5	+29,1	72,2
Farg'ona	2 039,2	+13,0	3,6
Samarqand	2 013,4	+24,8	3,6
Toshkent viloyati	1 713,0	+17,3	3,0
Andijon	1 396,3	+18,0	2,5
Qashqadaryo	1 300,7	+13,0	2,3
Namangan	1 240,1	+15,9	2,2
Surxondaryo	1 094,7	+16,5	1,9
Xorazm	1 040,6	+34,3	1,9
Qoraqalpog'iston Resp.	997,9	+20,7	1,8
Buxoro	990,5	+16,5	1,8
Jizzax	642,9	+25,0	1,1
Navoiy	634,9	+17,9	1,1
Sirdaryo	453,5	+11,8	0,8

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Toshkent shahri raqamli iqtisodiyotda mutlaq ustunlikka ega. Poytaxtda 2024-yilda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 40 559,5 milliard so'mni tashkil etdi, bu respublika bo'yicha umumiy

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

hajmning 72,2 foizini egallaydi. Toshkent shahrida yillik o'sish 29,1 foizni tashkil etdi.

Qolgan barcha viloyatlar jami 15 616,7 milliard so'm yoki 27,8 foizni tashkil etadi. Bu hududiy raqamli tafovutning juda katta ekanligini ko'rsatadi. Eng yirik viloyatlar bo'lgan Farg'ona va Samarqand har biri atigi 2 trillion so'm atrofida ko'rsatkichga ega, bu Toshkent shahridan 20 barobar kam.

Hududlar bo'yicha ko'rsatkichlarni tahlil qilish quyidagi xulosalarni beradi:

Birinchi guruh - yuqori rivojlanish darajasi. Toshkent shahri aniq lider bo'lib, raqamli iqtisodiyotning deyarli to'liq markazlashgan. Bu yerda IT kompaniyalarining aksariyati, IT Park, zamonaviy infrastruktura, yuqori malakali kadrlar to'plangan.

Ikkinchi guruh - nisbatan rivojlangan viloyatlar. Farg'ona (2 039,2 mlrd so'm), Samarqand (2 013,4 mlrd so'm), Toshkent viloyati (1 713,0 mlrd so'm) va Andijon (1 396,3 mlrd so'm) ushbu guruhga kiradi. Bu viloyatlar aholi soni ko'p, iqtisodiy jihatdan faol va Toshkent shahridan keyin ikkinchi darajali raqamli markazlar hisoblanadi.

Uchinchi guruh - o'rtacha rivojlanish. Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo, Xorazm, Qoraqalpog'iston, Buxoro viloyatlari 1-1,3 trillion so'm oralig'ida ko'rsatkichlarga ega.

To'rtinchi guruh - past rivojlanish. Jizzax (642,9 mlrd so'm), Navoiy (634,9 mlrd so'm) va Sirdaryo (453,5 mlrd so'm) eng past ko'rsatkichlarga ega. Sirdaryo viloyati respublika bo'yicha umumiy hajmning atigi 0,8 foizini tashkil etadi.

2024-yilda hududlar bo'yicha o'sish sur'atlari ham turlicha bo'ldi. Eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar:

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

3-Jadval

Hududlar bo'yicha o'sish sur'atlari reytingi (2024)

O'rin	Hudud	O'sish sur'ati (%)
1	Xorazm	+34,3
2	Toshkent shahri	+29,1
3	Jizzax	+25,0
4	Samarqand	+24,8
5	Qoraqalpog'iston	+20,7
6	Andijon	+18,0
7	Navoiy	+17,9
8	Toshkent viloyati	+17,3
9	Surxondaryo	+16,5
9	Buxoro	+16,5
11	Namangan	+15,9
12	Farg'ona	+13,0
12	Qashqadaryo	+13,0
14	Sirdaryo	+11,8

Eng yuqori o'sish sur'atiga Xorazm viloyati (34,3 foiz) erishdi, bu past bazadan boshlanganlik va mahalliy raqamlashtirish dasturlarining samarasini ko'rsatadi. Toshkent shahri yuqori bazaga qaramay 29,1 foizlik o'sishni ta'minladi. Jizzax (25,0 foiz) va Samarqand (24,8 foiz) ham yuqori dinamikani namoyish etdi.

Eng past o'sish sur'ati Sirdaryo (11,8 foiz), Farg'ona va Qashqadaryo (har birida 13,0 foiz) viloyatlarida qayd etildi. Bu hududlarda raqamli transformatsiya sekinroq amalga oshmoqda.

Toshkent shahrining 72,2 foizlik ulushi hududiy raqamli tafovutning o'ta yuqori darajasini ko'rsatadi. Taqqoslash uchun, ikkinchi o'rindagi Farg'ona viloyati atigi 3,6 foizga ega. Bu 20 baravar farqni tashkil etadi.

Agar Toshkent shahrini alohida ko'rib chiqsak, qolgan 14 hudud o'rtasida ham tafovut sezilarli. Eng kuchli viloyat (Farg'ona, 2 039,2 mlrd so'm) eng zaif viloyatdan (Sirdaryo, 453,5 mlrd so'm) 4,5 barobar katta ko'rsatkichga ega.

Kuzatilgan hududiy tafovutlarning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Infratuzilma farqlari. Toshkent shahrida optik-tolali tarmoqlar, 5G sinovlari, zamonaviy ma'lumotlar markazlari mavjud. Viloyatlarda, ayniqsa qishloq joylarida internet tezligi past va barqaror emas.

Kadrlar to'planishi. IT mutaxassislarining aksariyati Toshkent shahrida yashaydi va ishlaydi. Viloyatlarda IT ta'lim sifati past, bitiruvchilar poytaxtga ko'chib ketadi.

IT kompaniyalarining joylashuvi. IT Park va uning rezidentlarining deyarli barchasi Toshkent shahrida joylashgan. 2800 dan ortiq rezidentning 90 foizdan ko'pi poytaxtda faoliyat yuritadi.

Moliyaviy imkoniyatlar. Toshkent shahrida venchur kapital, investorlar, banklar to'plangan. Viloyatlarda startaplar va IT loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlari cheklangan.

Bozor hajmi. Toshkent shahrida 3 milliondan ortiq aholi, yirik kompaniyalar, davlat idoralari joylashgan va bu katta raqamli xizmatlar bozorini yaratadi.

"Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi barcha hududlarni rivojlantirishni maqsad qilib qo'ygan, ammo 2024-yil natijalari shuni ko'rsatadiki, Toshkent shahri va viloyatlar o'rtasidagi tafovut kamayish o'rniga ortmoqda.

2020-2024 yillar oralig'ida Toshkent shahrining ulushi nisbatan barqaror saqlanib qoldi (70-72 foiz atrofida), bu hududiy konsentratsiyaning yuqori darajada qolganligini anglatadi. Viloyatlarda raqamli xizmatlar o'sib bormoqda, ammo bu o'sish Toshkent shahridagi o'sish sur'atini qoplash uchun yetarli emas.

Ba'zi viloyatlar, masalan Xorazm (34,3 foiz o'sish), Jizzax (25,0 foiz) va Samarqand (24,8 foiz) yuqori dinamikani namoyish etishmoqda. Bu mahalliy hokimliklarning raqamlashtirishga e'tiborini, mahalliy IT klasterlarni rivojlantirish harakatlarini aks ettiradi.

Davlat xizmatlarini raqamlashtirish barcha hududlarda amalga oshirilmoqda, ammo foydalanish intensivligi turlicha. Toshkent shahrida fuqarolarning 85 foizdan ko'pi elektron xizmatlardan muntazam foydalansa, viloyatlarda bu ko'rsatkich 40-60 foiz oralig'ida.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Sabablari orasida raqamli savodxonlikning past bo'lishi, internet kirishning cheklanganligi, elektron hujjatlarga ishonchning yetarli emasligi qayd etiladi. Katta yoshdagi fuqarolar va qishloq joylari aholisi hali an'anaviy usulda xizmat olishni afzal ko'radi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi hududning umumiy iqtisodiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Yuqori ko'rsatkichlarga ega viloyatlar (Farg'ona, Samarqand, Andijon) aholi soni ko'p, sanoat va qishloq xo'jaligi rivojlangan, iqtisodiy jihatdan faol hududlardir.

Elektron tijorat platformalari mahalliy ishlab chiqaruvchilarga keng bozorga chiqish imkonini bermoqda. Viloyatlardagi kichik biznes raqamli kanallar orqali o'z mahsulotlarini butun mamlakat bo'ylab sotish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hududiy iqtisodiy tizimlarni raqamlashtirish zamonaviy sharoitda iqtisodiy o'sish, raqobatbardoshlik va ijtimoiy rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishildi, ammo hududlar o'rtasida raqamli imkoniyatlar taqsimlanishida katta tafovutlar saqlanib qolmoqda.

Hududiy raqamlashtirishning asosiy muammolari quyidagilardan iborat: raqamli infratuzilmaning notekis rivojlanishi, qishloq joylarida internet sifatining past bo'lishi, malakali kadrlar taqchilligi va ularning markazga oqib ketishi, mahalliy budjetlarning cheklangan imkoniyatlari, raqamli savodxonlik darajasining yetarli emasligi, hududiy boshqaruv organlarining raqamli kompetensiyalarining zaifligi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli hududiy raqamlashtirish aniq strategiya, kuchli siyosiy iroda, yetarli moliyalashtirish, hududiy xususiyatlarni hisobga olish va barcha darajalar o'rtasida samarali koordinatsiyani talab qiladi.

Hududiy iqtisodiy tizimlarni raqamlashtirish nafaqat texnologik, balki institutsional, ijtimoiy va madaniy transformatsiyani ham o'z ichiga oladi. Raqamli

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

texnologiyalar asbobdir, lekin ularning samarali qo'llanishi inson kapitali, boshqaruv sifati va innovatsion madaniyatga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Castells, M. (1996). The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell Publishers.

2. Townsend, A.M. (2013). Smart Cities: Big Data, Civic Hackers, and the Quest for a New Utopia. New York: W.W. Norton & Company.

3. Komninos, N. (2016). Smart Cities and Connected Intelligence: Platforms, Ecosystems and Network Effects. London: Routledge.

4. Sharifi, A. (2020). A typology of smart city assessment tools and indicator sets. Sustainable Cities and Society, 53, 101936.

5. Sharifxodjayev, Sh.Z. (2021). Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish: O'zbekiston tajribasi va istiqbollari. Toshkent: "Fan" nashriyoti.

6. Jumayev, N.X., & Abdullayev, Ya.U. (2022). Hududiy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 4(9), 78-92.

7. Begimqulov, U.Sh. (2023). Elektron hukumat tizimini takomillashtirish yo'llari. Raqamli iqtisodiyot, 3(11), 45-59.

8. Ismoilov, R.A. (2021). Viloyatlarda raqamli infratuzilmani rivojlantirish muammolari. Iqtisodchi jurnali, 8, 34-42.

9. https://stat.uz/uz/default/press-relizlar/50245-2024-yil